



O‘ZBEKISTONNING “YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR

Xabiyeva Feruza Otabek qizi

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo‘nalish
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Global ekologik muammolar kuchayib borayotgan sharoitda O‘zbekiston uchun “yashil” iqtisodiyotga o‘tish zarurati dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi, uning asosiy yo‘nalishlari, amalga oshirilayotgan islohotlar hamda bu jarayonda uchrayotgan muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, “yashil” iqtisodiyotning mamlakat iqtisodiy o‘rinishidagi o‘rni va qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanishni Qozog‘iston misolida ham ko‘rsatib o‘tiladi. “Yashil” iqtisodiyotning tabiiy resurslarni tejash va ekologik zararlarni kamaytirish, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish orqali mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga yordam berishi ham aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: “yashil” iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindi, “yashil” kreditlash, energiya.

UZBEKISTAN’S “GREEN” ECONOMY TRANSITION STRATEGY: EXISTING PROBLEMS AND PROSPECTIVE OPPORTUNITIES

Abstract: In the context of escalating global environmental problems, the transition of Uzbekistan to a “green” economy has become one of the most pressing issues. This article analyzes the strategy of the Republic of Uzbekistan for transitioning to a “green” economy, its key directions, ongoing reforms, and the challenges encountered in this process. It also discusses the role of the “green” economy in the country’s economic growth, with an example from Kazakhstan. Furthermore, it highlights that the “green” economy helps ensure the country’s sustainable development through the efficient use of natural resources, reducing environmental damage, and utilizing renewable energy sources.

Keywords: “green” economy, renewable energy, waste, green financing, energy

СТРАТЕГИЯ ПЕРЕХОДА УЗБЕКИСТАНА К “ЗЕЛЕННОЙ” ЭКОНОМИКЕ: СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ

Аннотация: В условиях усиливающихся глобальных экологических проблем переход Узбекистана к “зеленой” экономике становится одним из самых актуальных вопросов. В данной статье анализируется стратегия перехода Республики Узбекистан к “зеленой” экономике, ее основные направления,



проводимые реформы и проблемы, с которыми сталкивается страна в этом процессе. Также рассматривается роль “зеленой” экономики в экономическом росте страны на примере Казахстана. Кроме того, подчеркивается, что “зеленая” экономика способствует обеспечению устойчивого развития страны через эффективное использование природных ресурсов, снижение экологического ущерба и использование возобновляемых источников энергии.

Ключевые слова: “зелёная” экономика, возобновляемая энергия, отходы, “зелёное” кредитование, энергия

KIRISH

Dunyo miqyosida iqlim oʻzgarishi, ekologik muammolarning kuchayishi va tabiiy resurslarning cheklanganligi insoniyatni iqtisodiy rivojlanishning yangi modeli - “yashil” iqtisodiyotga oʻtishga undamoqda. “Yashil” iqtisodiyot - bu iqtisodiy rivojlanishning yangi modeli boʻlib, uning asosiy maqsadi tabiiy resurslarni barqaror va samarali tarzda ishlatish, ekologik zararlarni kamaytirish va ijtimoiy tenglikni taʼminlashdir.

“Yashil” iqtisodiyotning paydo boʻlishi 1990-yillardan boshlangan, asosan iqlim oʻzgarishi, ekologik ifloslanish, resurslarning kamayishi va iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash zarurati tufayli rivojlangan. Bu model 2000-yillardan boshlab global miqyosda kuchayib, hozirda “Yashil” iqtisodiyot butun dunyo boʻylab iqtisodiy va ekologik islohotlarning asosiy yoʻnalishiga aylangan. [1]

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “2019 - 2030-yillar davrida Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi” [2] toʻgʻrisidagi PQ-4477-sonli qarori buning yaqqol dalilidir. “Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy oʻsish bilan bir qatorda ekologik barqarorlikni taʼminlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda kelajak avlodlar uchun qulay yashash muhitini yaratishga qaratilgan.

“Yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi chiqindilarni kamaytirish hamda ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan boʻlib, koʻplab davlatlarda amaliy natijalar bermoqda. Mintaqa miqyosida ham bu borada ijobiy tajribalar kuzatilmoqda, ayrim rivojlanayotgan davlatlar ekologik xavfsizlikni taʼminlash maqsadida plastik mahsulotlar isteʼmolini cheklashga oid qatʼiy choralarni amalga oshirmoqda.

ASOSIY QISM

Butun dunyo miqyosida iqtisodiy rivojlanish bilan birga iqlim oʻzgarishi, ekologik muammolar va tabiiy resurslarning cheklanganligi kuchayib bormoqda. Bugungi kunda global isish, havo va suv ifloslanishi, qishloq xoʻjaligi va sanoat chiqindilarining ortishi insoniyat oldida jiddiy xavf yaratmoqda. Bunday jarayonlar global miqyosda barqaror rivojlanish gʻoyasiga nisbatan keskin talabni kuchaytirib, “yashil” iqtisodiyot modelining shakllanishiga sabab boʻldi. “Yashil” iqtisodiyotning asosiy maqsadi iqtisodiy oʻsishni ekologik barqarorlik bilan uygʻunlashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy farovonlikni taʼminlashdan iborat. Bu model mustaqillikka erishgan yillardan



boshlab shakllana boshlagan bo'lsa-da, 2015-yildan keyingi global kelishuvlar, jumladan Parij bitimi, uning dolzarbligini yanada kuchaytirdi. Hozirgi kunda ko'plab mamlakatlar iqtisodiy islohotlar, energiya tizimi modernizatsiyasi va chiqindilarni qayta ishlash kabi yo'nalishlarda aynan "yashil" iqtisodiyotni ustuvor rivojlanish strategiyasi sifatida qabul qilgan. [1]

2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'prog'iga yetkazish;
- sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;
- yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyasini joriy etish;
- yiliga 200 million ko'chat ekish va ko'chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish; [5]

Bu model nafaqat iqtisodiy o'sishni davom ettirishga, balki kelajak avlodlar uchun sog'lom va qulay yashash muhitini yaratishga xizmat qiladi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyoda 2,24 milliard tonnadan ortiq qattiq chiqindi hosil bo'lib, bu ko'rsatkich 2050-yilga borib 73% ga oshishi mumkin. [3]

Rivojlanayotgan mamlakatlar misolida ham "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishda amalga oshirilayotgan islohotlarini ko'rishimiz mumkin. Rivojlanayotgan mamlakatlar qatori Qozog'iston ham "yashil" iqtisodiyotga o'tishda plastik chiqindilarni kamaytirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Mamlakat Ekologiya vazirligining ma'lumotiga ko'ra, 2025-yildan boshlab oddiy polietilen paketlar o'rniga biologik parchalanadigan (biodegradable) paketlar qo'llash rejalashtirilgan. Bu yo'nalishda "Atameken" Tadbirkorlar palatasi va Ekologik tashkilotlar assotsiatsiyasi tomonidan memorandum imzolangan. [4]

XULOSA

"Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi bugungi kunda dunyo miqyosida iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirishning eng muhim yo'nalishi sifatida shakllanmoqda. Iqlim o'zgarishi, havo va suv ifloslanishi, qishloq xo'jaligi va sanoat chiqindilarining ortishi, shuningdek, tabiiy resurslarning cheklanganligi an'anaviy iqtisodiy modelning barqaror emasligini ko'rsatmoqda. Shu sababli rivojlanayotgan mamlakatlar energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik texnologiyalarni qo'llash orqali yashil iqtisodiyotni



rivojlantirishga intilmoqda. Plastik paketlar o‘rniga biologik parchalanadigan materiallardan foydalanish, suv va yer resurslarini barqaror boshqarish, qishloq xo‘jaligida ekologik texnologiyalarni joriy etish kabi choralar iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy institutlar, davlat siyosati va mintaqaviy hamkorlik orqali yashil iqtisodiyotning samarali amalga oshirilishi ham kafolatlanmoqda. Umuman olganda, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi nafaqat resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni himoya qilish, balki kelajak avlodlar uchun sog‘lom va qulay yashash muhitini yaratishda ham muhim vosita sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://www.undp.org/sustainable-development-goals>
2. “2019 - 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 04.11.2019. - 4477-son
3. <https://www.worldbank.org/en/topic/urbandevelopment/brief/solid-waste-management>
4. <https://atameken.kz/en/news/33037-biznes-za-ekologicheskie-iniciativy>
5. “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori// Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 02.12.2022. – 436-son